

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 308,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 438,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6870,2** mlrd. so'mni (**4,0 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **519,4** mlrd. so'mni (**29,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 308,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **99,9** % ni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kasentabrish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,7** % va yirik korxonalar hissasiga **17,3** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **31,9** % ulush bilan **2 653,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Qorovulbozor **2,0** % ulush bilan **166,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **6 870,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,0** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,7** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Buxoro sh. (99,2 %), Kogon sh. (99,2 %), Qorako'l 99,0%), Romitan (99,0 %), Shofirkon (98,6 %), Jondor (98,4 %), Peshku (98,3 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (107,6 %), Kogon (106,9 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





| | Jami, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Buxoro viloyati | 8 308,5 | 99,9 | 1 438,3 | 124,4 | 6 870,2 | 96,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Buxoro sh. | 2 653,2 | 100,2 | 932,6 | 131,5 | 1 720,6 | 88,7 |
| Kogon sh. | 295,7 | 93,6 | 2,5 | 40,6 | 293,2 | 94,6 |
| Olot | 191,7 | 94,3 | 4,2 | 2,2 b. | 187,5 | 93,2 |
| Buxoro | 448,4 | 100,1 | 3,8 | 2,1 b. | 444,6 | 99,7 |
| Vobkent | 497,7 | 100,3 | 171,1 | 120,1 | 326,6 | 92,4 |
| G'ijduvon | 1 593,7 | 107,6 | 199,9 | 95,9 | 1 393,8 | 109,6 |
| Kogon | 203,3 | 106,9 | 87,8 | 193,7 | 115,5 | 79,8 |
| Qorako'l | 642,9 | 91,3 | 6,2 | 39,1 | 636,7 | 92,5 |
| Qorovulbozor | 166,6 | 100,2 | 8,1 | 106,9 | 158,5 | 99,9 |
| Peshku | 277,9 | 100,6 | 4,6 | 191,8 | 273,3 | 99,8 |
| Romitan | 486,6 | 91,1 | 4,7 | 87,4 | 481,9 | 91,2 |
| Jondor | 502,3 | 100,1 | 7,8 | 117,6 | 494,5 | 99,9 |
| Shofirkon | 348,4 | 100,0 | 4,9 | 158,5 | 343,5 | 99,5 |

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **24,4 %** ga o'sdi va **1 438,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 870,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kogon sh. (99,2 %), Buxoro (99,2 %), Peshku (98,3 %), Romitan (99,0 %), Qorako'l (99,0 %), Shofirkon (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro sh. (35,2 %), Kogon (43,2 %), Vobkent (34,4 %), va Gijduvon (12,5 %) tumanlarida kuzatildi.





**BUXORO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 300,9** ming so'mni tashkil etib (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2,4** % ga kamaydi) va. Gijduvon (106,2 %), Kogon (104,7 %) tumanlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qorovulbozor (9 054,5 ming so'm) tumani va Buxoro shahri (9 458,8 ming so'm), hissasiga to'g'ri keladi.




| | Hajm, ming so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da |
|------------------------|-----------------|--|
| Buxoro viloyati | 4 300,9 | 98,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Buxoro sh. | 9 458,8 | 99,5 |
| Kogon sh. | 4 824,8 | 92,8 |
| Olot | 1 930,5 | 93,1 |
| Buxoro | 2 683,1 | 98,4 |
| Vobkent | 3 552,8 | 98,8 |
| G'ijduvon | 5 230,1 | 106,2 |
| Kogon | 2 590,0 | 104,7 |
| Qorako'l | 3 917,8 | 90,3 |
| Qorovulbozor | 9 054,5 | 98,6 |
| Peshko' | 2 255,8 | 98,8 |
| Romitan | 3 424,9 | 89,5 |
| Jondor | 2 872,0 | 98,6 |
| Shofirkon | 1 961,9 | 98,7 |

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **519,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **29,4 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **299,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **98,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **219,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **51,1 %**) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **299,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **219,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

| | Jami, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Buxoro viloyati | 519,4 | 70,6 | 299,9 | 98,2 | 219,5 | 51,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Buxoro sh. | 84,6 | 62,6 | 57,1 | 91,7 | 27,5 | 37,7 |
| Kogon sh. | 26 | 74,4 | 13,5 | 129,1 | 12,5 | 51,1 |
| Olot | 16,3 | 58,2 | 4,5 | 65,4 | 11,8 | 55,8 |
| Buxoro | 24 | 57,4 | 19 | 80,4 | 5,1 | 27,7 |
| Vobkent | 36,6 | 85,2 | 20,8 | 75,3 | 15,8 | 102,8 |
| G'ijduvon | 183,1 | 96,3 | 132,7 | 97,8 | 50,4 | 92,4 |
| Kogon | - | - | - | - | - | - |
| Qorako'l | 30,8 | 34,4 | 8,7 | 194,1 | 22,2 | 26 |
| Qorovulbozor | 12,9 | 54,1 | 5,1 | 112,2 | 7,7 | 40,2 |
| Peshku | 29,5 | 78,5 | 14,8 | 181,8 | 14,7 | 50 |
| Romitan | 38,1 | 62,7 | 2,2 | 21,4 | 35,9 | 71,1 |
| Jondor | 24,9 | 67,1 | 10,8 | 245,6 | 14,1 | 43 |
| Shofirkon | 12,6 | 93 | 10,8 | 149,6 | 1,8 | 28,7 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,1
mlrd. so'm

Tuzlamalar



119,1
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



7,7
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

57,3
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



17,4
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

5,0
mlrd. so'm



Tuxum

32,1
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

3,2
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

6,7
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **299,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**98,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2,2
mlrd. so'm



Ziravorlar

47,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **219,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **167,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **49,1** mlrd. so'mni, otlar **2,5** mlrd. so'mni, parrandalar **0,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,6 %** ni tashkil etib, **220,5 mlrd. so‘mga** yetdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,1 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **85,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



| | Jami, mlrd. so‘m | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|------------------|---------------------|--|------------------------------------|--|--|--|
| Buxoro viloyati | 220,5 | 81,9 | 33,9 | 123,3 | 186,5 | 77,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Buxoro sh. | 100,2 | 84,0 | 27,0 | 129,1 | 73,2 | 74,4 |
| Kogon sh. | 6,4 | 67,7 | - | - | 6,4 | 67,7 |
| Olot | 4,3 | 80,9 | - | - | 4,3 | 80,9 |
| Buxoro | 15,5 | 90,9 | - | - | 15,5 | 90,9 |
| Vobkent | 16,5 | 81,5 | - | - | 16,5 | 81,5 |
| G'ijduvon | 22,1 | 70,8 | 0,03 | 17,5 | 22,1 | 70,8 |
| Kogon | 5,3 | 92,0 | - | - | 5,3 | 92,0 |
| Qorako'l | 9,9 | 65,8 | - | - | 9,9 | 65,8 |
| Qorovulbozor | 13,1 | 124,6 | 6,9 | 105,1 | 6,1 | 157,7 |
| Peshko' | 5,6 | 128,8 | - | - | 5,6 | 128,8 |
| Romitan | 11,4 | 85,3 | - | - | 11,4 | 85,3 |
| Jondor | 6,3 | 66,4 | - | - | 6,3 | 66,4 |
| Shofirkon | 3,9 | 49,2 | - | - | 3,9 | 49,2 |



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2019- yil yanvar-sentabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,02** % dan **0,05** % ga oshdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **220,5** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 81,9 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **220,4** mlrd. so'm nodavlat mulkga (96,95 %) hamda **0,05** mlrd. so'm (0,01 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi va davlat ulushi Buxoro shahriga (99,99 %) to'g'ri keldi.

| | Jami, mln. so'm | Ulushi, foizda | Nodavlat mulki, mln. so'm | Ulushi, foizda | Davlat mulki, mln. so'm | Ulushi, foizda |
|------------------------|-----------------|----------------|---------------------------|----------------|-------------------------|----------------|
| Buxoro viloyati | 220 478,2 | 81,9 | 220 360,9 | 99,95 | 117,2 | 0,05 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Buxoro sh. | 100 243,1 | 84,0 | 100 125,9 | 99,99 | 117,2 | 0,01 |
| Kogon sh. | 6 436,2 | 67,7 | 6 436,2 | 100,0 | - | - |
| Olot | 4 253,2 | 80,9 | 4 253,2 | 100,0 | - | - |
| Buxoro | 15 529,7 | 90,9 | 15 529,7 | 100,0 | - | - |
| Vobkent | 16 456,2 | 81,5 | 16 456,2 | 100,0 | - | - |
| Gijduvon | 22 146,2 | 70,8 | 22 146,2 | 100,0 | - | - |
| Kogon | 5 326,0 | 92,0 | 5 326,0 | 100,0 | - | - |
| Qorako'l | 9 889,5 | 65,8 | 9 889,5 | 100,0 | - | - |
| Qorovulbozor | 13 008,0 | 124,6 | 13 008,0 | 100,0 | - | - |
| Peshko' | 5 601,4 | 128,8 | 5 601,4 | 100,0 | - | - |
| Romitan | 11 389,7 | 85,3 | 11 389,7 | 100,0 | - | - |
| Jondor | 6 292,7 | 66,4 | 6 292,7 | 100,0 | - | - |
| Shofirkon | 3 906,2 | 49,2 | 3 906,2 | 100,0 | - | - |

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 241,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **19,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **505,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **79,6 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 736,0** mlrd. so'mni (**19,3 %** ga kamaydi)

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Jondor

Buxoro

Peshko'


Buxoro shahar

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Buxoro sh. (155,8 %), Kogon sh. (11,0 b.) va Peshku (6,1 b.) tumanlarida kuzatildi.



Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Shofirkon (89,4 %) qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Buxoro viloyati | 2 241,8 | 80,5 | 505,8 | 79,6 | 1 736,0 | 80,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Buxoro sh. | 862,7 | 94,0 | 92,6 | 155,8 | 770,2 | 89,8 |
| Kogon sh. | 55,2 | 45,2 | 20,7 | 11,0 b. | 34,5 | 28,7 |
| Olot | 42,3 | 136,8 | 17,9 | 82,2 | 24,3 | 2,7 b. |
| Buxoro | 292,4 | 121,3 | 0,005 | 1,8 | 292,4 | 121,4 |
| Vobkent | 57,7 | 82,2 | 28,5 | 73,1 | 29,2 | 93,7 |
| G'ijduvon | 106,9 | 60,2 | 26,6 | 84,0 | 80,3 | 55,0 |
| Kogon | 55,6 | 14,5 | 12,4 | 4,0 | 43,2 | 58,3 |
| Qorako'l | 89,8 | 61,8 | 14,8 | 67,3 | 75,0 | 60,8 |
| Qorovulbozor | 41,9 | 54,0 | 30,6 | 74,0 | 11,3 | 31,2 |
| Peshko' | 415,6 | 126,1 | 186,7 | 6,1 b. | 228,8 | 76,5 |
| Romitan | 71,7 | 61,8 | 16,1 | 82,7 | 55,6 | 57,6 |
| Jondor | 114,9 | 87,0 | 33,4 | 106,5 | 81,4 | 81,0 |
| Shofirkon | 35,2 | 78,9 | 25,5 | 89,4 | 9,7 | 60,3 |

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



2019- yil
yanvar-
sentabr

2020- yil
yanvar-
sentabr

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **1 736,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 19,3 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,4** % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Buxoro sh. (89,3 %), Kogon sh. (77,7 %), Buxoro (100,0 %) va Qorako'l (83,5 %) tumanlarida, yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Qorovulbozor (27,0 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 71-223-75-63